



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-89-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli va 2019-yil 8-yanvardagi PQ-4102-sonli qarorlariga asosan birlashtirilgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektor rahbarlarining hisobotlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli Qarorlariga asosan tuman aholisi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy muhitni yaxshilash hamda iqtisodiyot tarmoqlarini keng ko‘lamda rivojlantirish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini tahlil qilish, sektorlar rahbarlari faoliyatini kuchaytirish va mas’uliyatini oshirish maqsadida sektorlar rahbarlarining 2023-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshutilganligi va ko‘rib chiqilganligi hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tumanni kompleks rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning bajarilishini tashkil etish yuzasidan tuman sektorlar rahbarlari (Q.Mardonov, S.Ramazonov, S.Choriyev, N.Sharipov)ning 2023-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

### **2. Tuman hokimligi va sektor rahbarlari birgalikda:**

- “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy

himoyaga muhtoj fuqarolarning muammolarini hal etish va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga har oy yakuniga ko'ra axborot kiritib borish;

- sektor shtablari tarkibiga idora va tashkilotlarning malakali mutaxassisleri jalb etilishini hamda ularning faoliyati samarali yo'lga qo'yilishini ta'minlash;

- sektorlardagi faoliyati to'xtagan korxonalarni qayta tiklash bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rsin, eksport bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar ijrosi yuzasidan tadbirkorlarga har tomonlama amaliy yordam ko'rsatish;

- aholini, birinchi navbatda, ehtiyojmand fuqarolarni ish bilan ta'minlash bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatsin, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ishlarni jadallashtirsin.

### **3. Tuman sektor rahbarlari (Q.Mardonov, S.Ramazonov, S.Choriyev, N.Sharipov)ga:**

- "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- oilalarning turmush sharoitini yaxshilanishi evaziga "Temir daftar"dan chiqarish, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash;

- "Temir daftar"da qolgan oilalarning turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish;

- "Ayollar daftari"ga kiritilgan ayollarga yo'nalishlar bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilishini alohida nazoratga olish;

- ishga muhtoj ishsiz ayollarning bandligini ta'minlash;

- kasb-hunarga o'qish istagi bo'lgan xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish;

- xotin-qizlar tadbirkorligini yo'lga qo'yish uchun ularga kreditlar ajratish;

- boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand va nogironligi bor hamda qaramog'ida nogiron bolalari mavjud yolg'iz ayollarga doimiy yordam ko'rsatish;

- tibbiy yordam, huquqiy va psixologik yordamga muhtoj ayollarga tegishli yordamlar ko'rsatish;

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan muammoli yoshlarga ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik yordam ko'rsatish;

- yoshlarni turli yo'nalishlar bo'yicha bandligini ta'minlash yuzasidan aniq tahlillar asosida hisob-kitob yuritish;

- aholi murojaatlarini ko‘rib chiqish;

- “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida amalga oshirilgan aniq manzilli ishlar tahlil qilish;

- kambag‘allikni qisqartirish borasida bajarilgan ishlar, ayniqsa, ishsiz fuqarolarni doimiy ishga joylashtirish, o‘zini o‘zi band qilish;

- aholi tomonidan ko‘tarilayotgan muammolarni hal etish bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xaritalari”ning ijrosi bo‘yicha muntazam muhokama qilib borish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **har chorak yakuni** bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Angor tuman Kengashi hamda uning doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**